

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.09/31.08.2022.1.151.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEKMURODOV ABBOS AMIRIDDINOVICH

TIJORAT BANKLARIDA XALQARO TRANSFORMASIYA
JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)ilmiy darajasini olish
uchun yozilgan
DISSERTASIYA

Toshkent– 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. BANK FAOLIYATINI TRANSFORMASIYALASH JARAYONLARINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI	12
1.1. Tijorat banklari faoliyatida xalqaro transformasiyalashuv jarayonlarini yoritishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar.....	12
1.2. Xalqaro transformasiyalashuv jarayonlarining iqtisodiy va texnologik muhitidagi strategik tendensiyalari.....	25
1.3. Bank ekotizimini shakllantirish – tijorat banklari faoliyatida transformasiyalashuv jarayonlarining asosiy yo‘nalishi sifatida	36
1-bob bo‘yicha xulosalar	46
2.1. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tizimi rivojlanishi holati tahlili	48
2.2. Tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish va moliyaviy texnologiyalarni qo‘llash holati va rivojlanish yo‘nalishlari	53
2.3. Tijorat banklari faoliyatida mijozning to‘lov qobiliyatini baholashni modellashtirish	64
2-bob bo‘yicha xulosalar	71
3.1. Tijorat banklari faoliyatini omnikanalli muhitga transformasiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishlari	73
3.2. Tijorat banklari faoliyatini raqamli transformasiyalashuv muammolar va ularni hal etish imkoniyatlari	81
3.3. Tijorat banklari faoliyatining xalqaro transformasiyalashuvi sharoitida kredit portfelining rentabellik darajasini baholash uslubiyatini takomillashtirish.....	93
3-bob bo‘yicha xulosalar	105
Xulosa va takliflar	108
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	111

KIRISH

(FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI ANNOTASIYASI)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning ilg'or rivojlangan mamlakatlarida raqamlashuv jarayonlarining kuchayishi, pandemiyadan keyingi iqtisodiyotda va moliyaviy sohadagi barqaror o'sish tendensiyalarining tiklanishi bilan yetakchi davlatlar tomonidan pul—kredit siyosatining kutilayotgan keskinlashuvi fonida bank-to'lov tizimlarini xalqaro transformatsiyalashuvi, nobank kredit tashkilotlari faoliyatining yanada jadallashuvi kuzatilmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, "Tijorat banklarining 88 foizi hamkor ekotizimlarni shakllantirishni, 28 foizi davlat xizmatlari ko'rsatish sohasini, 36 foiz esa elektron tijorat sohasida xalqaro jarayonlarini hamda 89 foiz bank sohasida "moliyaviy landshaftni" rivojlantirishni"¹ asosiy omil sifatida ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Xalqaro moliya tashkilotlari, jumladan Xalqaro hisob-kitoblar banki, Yevropa markaziy banki, Jahon banki va milliy darajadagi markaziy banklar tomonidan xalqaro standartlashtirish, faoliyat samaradorligini baholash, raqamli va bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish hamda bank xizmatlari bozorining mavjud bo'sh segmentlarini samarali o'zlashtirishga qaratilgan samarador shakldagi bank mahsulot va xizmatlarilarini joriy qilish, jumladan ommabop segmentlar uchun ilg'or natijador yechimlarni taklif qilish imkoniyatini o'zida mujasamlashtirgan mikromoliyalashtirish, moliyaviy texnologik xizmatlar, ixtisoslashtirilgan kredit-vositachilik xizmatlarini va subektlarini rivojlantirish asosida tijorat banklarida xalqaro transformatsiya jarayonlarini takomillashtirishga keng e'tibor qaratmoqda.

Jahon miqyosida bank tizimida raqamli aloqalarining kuchayib borishi bilan raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalarni keng tatbiq etish, tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish natijasida moliyaviy xizmatlarning ommabopligi oshirish, moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini shakllantirish, bozor tamoyillari bo'yicha xizmat ko'rsatishni modernizatsiyalash, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilinishi asosida bank tizimining

¹ <https://www.forrester.com> – Forrester Research: Trends in Banking Informatization and Transformation 2022.

moliyaviy barqarorlik darajasi ko'tarish, tijorat banklarida xalqaro transformatsiyalash jarayonini jadallashtirish, banklarni transformatsiya qilish sharoitida mijozning to'lov qobiliyatini skoring usulda baholash asosida masofaviy bank xizmatlari bilan bog'liq risklarni boshqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda.

O'zbekistonda bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish uchun "...bank sektorini tubdan transformatsiya qilish maqsadida tijorat banklarining tarmoqdagi zamonaviy talablarga muvofiq transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, banklarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va tegishli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish hamda "samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari"ni belgilash amaliyotini joriy qilish..."² kabi vazifalar amalga oshirilmoqda. Buning samarasida tijorat banklari tomonidan 300 dan ortiq xizmatga, davlat xizmati ko'rsatuvchi 24 ta tashkilotga va elektron hamyotlarga to'lovlarni amalga oshirish va hamkor marketpleyslar orqali muddatli to'lov tizimini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga mijozning kredit qobiliyatini aniqlashga qaratilgan yagona kompleks me'yoriy tizimni ishlab chiqish, mijozning to'lovga qobilligini kredit muddati mobaynida barqaror saqlab qolish, hisob raqamiga pul daromadlari tushumi muddatlari bilan bog'liq tafovutlarni inobatga olgan holda xolis baholash hamda qarz mablag'larining qaytarilmaslik riskini kamaytirish, banklarning resurs imkoniyatlarini kengaytirish yuridik mijozlarning mahsulot(ish, xizmat) larini chakana iste'molchilarga "bank ekotizimi" tamoyiliga ko'ra imtiyozli kreditlash hamda bank xizmatlarini ko'rsatishni individuallashtirish va turli integratsiyalashgan servisni yo'lga qo'yish asosida an'anaviy B2B va B2C tizimini takomillashtirish hamda P2P tizimini kengaytirish yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarning dolzarb hamda amaliy ahamiyati yuqoriligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020—yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020—2025-iyularga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12 may 2020 yildagi PF-5992-sonli "2020 — 2025- yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida Farmoni, 12.05.2020 y.

tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "2020—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-apreldagi 763-sonli "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ-162-sonli "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 161-sonli "O'zsanoatqurilishbank" aksiyadorlik tijorat bankini xalqaro moliya institutlari ishtirokida xususiylashtirish va transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fani va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fani va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari faoliyatida raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish, xususan raqamli bank xizmatlarini kengaytirish muammolari xorijlik olimlardan A.Bastaria, A.Eliyanab, A.Syabarrudinc, Z.Ariefd, A.P.Emur, W.Wodo, P.Blaskiewicz, D.Stygar, N.Kuzmalar, D.Saymons (Simons D., Rolwes F), Binoy Joy Kattadiy³larning ilmiy

³ Bastaria A., Eliyanab A., Syabarrudinc A., Ariefd Z., Emur A.P. (2020). Digitalization in banking sector: the role of intrinsic motivation // Heliyon. Volume 6, Issue 12, e05801. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2020.e05801>; Wodo W., Blaskiewicz P., Stygar D., Kuzma N. (2021). Evaluating the security of electronic and mobile banking // Computer Fraud & Security. Volume 2021, Issue 10, Pages 8-14. [https://doi.org/10.1016/S1361-3723\(21\)00107-X](https://doi.org/10.1016/S1361-3723(21)00107-X); Simons D., Rolwes F. Macroeconomic Default Modeling and Stress Testing // International Journal of Central Banking. 2009.; Биной Жой Каттадий. "То'лов qobiliyatsizligi va bankrotlik to'g'risidagi kodeksiga binoan biznesni qayta qurish va qayta tuzishni boshqarish: Hindiston tajribasi saboqlari". Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореферат: 08.00.07 / Тошкент молия институти, 2021.– 90 б.